

MUHAMMAD SOLIHNING HAYOT YO'LI VA IJODIDAGI BADIY TASVIR VOSITALARI

Abdumutalova Shirin Axmad qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-
bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur keltirilgan maqolada o'zbek adabiyotining buyuk siymosi, o'z davrining eng yetuk, ma'nan va jismonan sog'lom insoni Muhammad Solihning hayot yo'li, oilasi, ijodga kirib kelishi, temuriylar va shayboniylar o'rtasidagi ayovsiz urushlar natijasida Muhammad Solih va uning oilasi aziyat chekishi, undan tashqari uning ijodi va she'rlaridagi badiiy tasvir vositalari va she'riy san'atlar haqida ma'lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Muhammad Solih, shayboniylar, temuriylar, Abusaid mirzo, Nur Said, tarse, mubolag'a, jonlantirish, o'xshatish, majoz, istiora.*

Kirish qismi: Muhammad Solih o'zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biridir. Navoiy va Bobur kabi atoqli so'z san'atkorlari tomonidan iste'dodli shoir sifatida ta'riflangan Muhammad Solihning o'zbek va fors-tojik tilida yaratgan she'rlaridan ayrim parchalarigina bizgacha yetib kelgan va saqlanib qolgan, xolos. Uning epik ijodi - „Shayboniynoma“ bizgacha to'liq holda yetib kelgan.

Asosiy qism: Muhammad Solih 1455-yilda Xorazmda tug'ilgan. Uning bobosi Amir Shoh Malik Ulug'bekning vasiysi va tarbiyachisi bo'lib, Temur va Ulug'bek saroylarida katta obro'ga ega bo'lgan amirlardan bo'lgan. Otasi Nur Saidbek esa Ulug'bek, Jo'gi mirzo va Abdusaid mirzo saroylaridagi e'tiborli arboblardan biri bo'lib, keyinchalik Abusaid mirzoga qarashli bo'lgan Xorazmda ancha vaqt hokimlik qilgan.

Toj-u taxtni egallash uchun uzoq yillar davomida Abusaid mirzoga qarshi kurash olib borgan Husayn Boyqaro 1467-yilda Xorazmga hujum qiladi. Mudofaa choralarini yaxshi tashkil etolmagan Xorazm amirlari Husayn Boyqaroning hujumiga bardosh berolmay, qochib ketadilar. Bundan g'azablangan Abusaid mirzo, tarixchi Abdurazzok Samarqandiyning «Matlaus-sa'dayn» («Ikki baxtning boshlanmasi») asarida hikoya qilishicha, «Hamma amirlar Xorazm viloyatiga junasinlar... gunohi ayon bulgan har bir kishiga sazo va jazo berilsin..», deb buyruq qiladi. Shu jumladan, Amir Nur Said xam jang kunlari parvosizlik qilgani uchun gunohkor sanalgan edi. Amirlar, oliy farmonga binoan, Xorazmga junab, ahvolni batafsil biladilar: «Xorazm askarlarining soni ko'p bo'lishiga qaramay, zafarpanoh Mirzo Sulton Husaynning hujumiga bardosh berolmay, birdaniga qochib qolgan ekan... Amir Pirdarvesh Kuchkin... Amir Nur Saidni tutib olib, uni otga



mindirib, shamol tezligida Hirotga yubordi. Uning butun mollari va vajhlarini talon-toroj ettirdi. Amir Nur Said rabbiyal-avvalning 20-sida Hirotga yetdi va uni Ixtiyoriddin kal'asiga qamadilar... Janob shayx (Abduraxmon Jomiy) amir Nur Saidning gunohini tiladilar. Hazrati Xilofatpanoh (Jomiy)ning iltimosini qondirdi..."

Nur Said Hirotda avval xiyla moddiy muhtojlik tortadi. Hatto bir ot berishni so'rab Abusaïd mirzoga murojaat qiladi. Lekin oradan kup o'tmay, Abdurazzoq Samarqandiyning aytishiga qaraganda, Nur Said «yana katta amirlar qatoridan o'rin oladi...».

1469-yilda Husayn Boyqaro Hirot taxtiga chiqadi. Abusaïd mirzoning bir qancha yaqin amir va beklari jazoga tortiladi. Shu vaqtlarda Marv shahrida bo'lgan Nur Said ham qatl qilinadi. Muhammad Solih otasining fojiali sarguzashti va o'zining yoshlik chog'larini eslab, keyinchalik «Shayboniyнома» da bunday degan edi:

...Laqabi Solihu o'zi Solih,
Nur Said o'g'li Muhammad Solih.
Mundoq ayturki, xudodin taqdir
Chun otam ishiga berdi tagyir:
Chiqdi Xorazm diyori qo'lidin,
Xevaqu Kot hisori qo'lidin.
Tushti andin guzori Marv sori,
Anda sovruldi ev (u) eli bori.
Ayladi nush shahodat jomi,
Anga nesh o'ldi saodat jomi.
Meni gardun sitami qildi yetim,
Ayladi kishvari g'am ichra muqim...

Muhammad Solih oila boshiga tushgan kulfatlarga qaramay, qunt va havas bilan o'qiydi, Abduraxmon Jomiydan tahsil oladi, arab va fors-tojik tillarini o'rganadi, tarix, adabiyot, husnixat va boshqalar bilan shug'ullanadi, she'r yozishni mashq qiladi. Shu bilan birga, u goh Xurosonda, goh Samarqandda temuriy hukmdorlarning saroyida mulozimlik qiladi.

Muhammad Solih otasining fojiali taqdiri tufayli temuriy hukmdorlarga kek saqlar edi. Temuriy shahzodalar va amir-amaldorlar o'rtasidagi nizo-advovat, saroylardagi ishratbozliklar uning g'azabini yanada kuchaytiradi. Muhammad Solih 1499-yilda Mullo Abdurahmon degan amaldorning maslahati bilan temuriylar saroyini tark etib, Shayboniyxon tomoniga o'tadi. Temuriylar tomoniga og'dirib olishdan manfaatdor bo'lgan Muhammad Solihni yaxshi qabul qiladi va o'z saroyida «amirul-umaro» («amirlar amiri»), «malikush-shuaro» («shonrlar boshlig'i») martabasiga ko'taradi. Muhammad Solih Shayboniyxonning davlat idora ishlari va harbiy yurishlarida faol ishtirok etadi. Shayboniyxon 1500- (905) yilda Buxoroni egallab Samarqanga yurish qilayotganida,



Muhammad Solihni Buxoroda o'z o'rniga qoldiradi. Muhammad Solih bir oz vaqt Qunduz shahrida ham bo'ladi. U Shayboniyxonning ukasi Sulton Maxmudning vafotidan keyin (1504 yil) Shayboniyxondan ruxsat olib Buxoroga qaytadi. Shayboniy 1504—1505 yillarda Xorazmga yurish boshlaydi. Shayboniy qo'shini Buxorodan chiqib Qorako'lga yetganda Chorjo'y hokimi Amir Yorali Shayboniyning sovg'alar bilan qarshi olib, unga taslim bo'ladi. Shayboniyxon Chorjo'yga Muhammad Solihni dorug'a (shahar hokimi) qilib qoldiradi. Muhammad Solih Chorjo'yda birmuncha tartib o'rnatib olgandan keyin Shayboniyxonning izidan Xorazmga jo'ndaydi. Xorazm hokimi Chin So'fi Husayn Boyqarodan madad so'raydi. Shu orada Husayn Boyqaro Shayboniyxonning e'tiborini Xorazmdan chetga tortish uchun, Qunduz, Chorjo'y va boshqa joylarga qo'shin yuboradi. Muhammad Solih Chorjo'yga qaytadi, qal'ani mustahkamlaydi, askarlarini jangga tayyorlaydi. Temuriylar elchi yuborib, Muhammad Solihni o'z tomonlariga o'tkazmoqchi bo'ladilar. Biroq u:

Men dedim: «Sizga javobim o'qtur,
Mundin o'zga base so'zum yo'qtur.
Javringizdin otam o'di, netayin?
Boshima qayg'u o'quldi, netayin ?
Men otam qoni uchun o'tlanaman,
Men o'zim joni(m) uchun qotlanaman..»,—
deb javob beradi.

Muhammad Solih 1505-yilning oxiri yoki 1506-yilning boshida Neso (Ashxobod yaqinida) shahriga dorug'a qilib tayinlanadi. Aftidan, u 1510—1511 yillargacha Neso shahrida yashagan, Shayboniyxonning vafotidan keyin esa Buxoroga qaytib, umrining oxiriga qadar o'sha yerda istiqomat qilgan. Lutf Ali ibn Oqoxon Ozarning «Otashkada» asarida ko'rsatilishicha, Muhammad Solih hijriy 941, milodiy 1535-yilda Buxoroda vafot etadi. Hasanxo'ja Nisoriy «Muzakkirul-axbob»da Muhammad Solihning Mirzo Ulug'bek ismli o'g'li bo'lgani va uning iste'dodli shoir ekanini aytib, uning:

«Ey xush ul kunlarki, ko'nglim vaslidin xushhol edi;
Axtarim farxundau baxtim xumoyun fol adi»
baytini keltiradi. Muhammad Solihning oilaviy hayotiga doir boshqa ma'lumotlar saqlanib qolmagan.

Shunday qilib, Muhammad Solih temuriylar sulolasining inqirozi va yemirilishi, shayboniyylar sulolasining vujudga kelishi va dastlabki hukmronligi yillarida yashadi, ijod qildi. Uning hayoti va faoliyati, badiiy ijodi, ayniqsa «Shayboniynoma» dostoni mana shu ikki sulola o'rtasidagi kurash va to'qnashuvlar bilan, bu kurash va to'qnashuvlarning oqibati bilan yaqindan bog'liqdir.

ADABIY MEROSI



Muhammad Solih lirik va epik shoirdir. Manbalar Muhammad Solihning badiiy ijodiyotidagi «zullisonayilik» an'anasini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan, o'zbek va fors-tojik tillaridagi she'rlari bilan kitobxonlarga, adabiyot ahllariga manzur bo'lganini ko'rsatadi Biroq, afsusk, Muhammad Solihning lirik she'rlar to'plami bizga qadar saqlanib qolmagan yoki hozirga qadar noma'lum bo'lib kelmoqda. Biz bu iste'dodli shoirning ayrim lirik parchalari bilan «Majolis un-nafois», «Badoye ul-vaqoye», «Boburnoma», «Tuhfai Somiy», «Otashkada» va boshqa manbalar orqali tanisha olamiz. Muhammad Solihning bir necha mustaqil lirik she'rlari «Shayboniynoma» dostonida ham bor.

Navoiy «Majolis un-nafois»da Muhammad Solih haqida bunday deydi:

«Muhammad Solih — ismi munosabati bilan Solih taxallus qilur. Nur Saidbek o'g'li dururkim, ko'p vaqtlar Chaxorjo'y navohisidan Adoq navohisiga degincha amorat (amirlik) qildi va Sulton Abusaid mirzo eshigida, Ulug'bek va Jo'gi mirzo eshigida sohib ixtiyor va jumlatul-mulk erdi. Ammo bag'oyat badfe'l - badxulq kishi erdi. O'zi muloyim yigitdur. Atvorning otasi atvorig'a nisbatan yo'qdur. Anga ham g'arib sahve tushtikim, Sulton Sohibqiron (Husayn Boyqaro) qullug'idan g'aybat ixtiyor qildi. Ba'zi dedilarkim, bexudluq olamida yomon musohiblar ani yomon yo'lg'a tutubdurlar. Ta'bida xeli diqqat va choshni bor. Xatqa ham qobilyati ko'pdur. Bu matla aningdurkim:

Nayam oshifta, gar po'shid kokul mohi tobonash,
Chi g'am az tiyragiyi shab, chu boshad subhi poyonash».

Yuqorida keltirilgan bayt Muhammad Solihning mohir san'atkorligiga bir dalildir. Bu baytda haroratli sevgi, yorning visoliga erishish ishtiyoqi va bunga ishonch hissi tashbihi tom (to'la o'xshatish) usuli bilan ifodalangan: kokul — tun, yuz — tong.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham «Boburnoma»da Muhammad Solihga «Choshnilik g'azallari bor, agarchi hamvorlig'i choshnisicha yo'qtur, turkiy she'ri ham bor. Yomon aytmaydur...» deb baho beradi va bir necha o'rinda uning she'rlaridan parchalar keltiradi hamda bir baytiga tatabbu' qiladi.

Manbalardagi bu oz sonli she'riy injular «Shayboniynoma»dagi lirik she'rlar bilan birgalikda Muhammad Solihni usta lirik shoir sifatida gavdalantiradi. U lirikada, garchi asosan an'anaviy mavzular doirasida qolgan bo'lsa ham, o'z original adabiy uslubini yarata olgan, turli xil badiiy usul va til vositalaridan mohirlik bilan foydalangan, yangi-yangi obrazlar, lavxalar yaratgan.

Biroq Muhammad Solihning adabiyot tarixidagi rolini uning bir necha misralaridagina saqlanib qolgan lirikasi emas, balki hozirgacha to'la saqlanib qolgan «Shayboniynoma» dostonidan belgilab olamiz. Muxammad Solix «Shayboniynoma»ni 1506-yilda yozib tugatadi. Uning bu dostonidan keyin yana qanday asarlar (lirik she'rlardan tashqari)



yaratgani ma'lum emas. Sharqshunos G. Vamberi «Buxoro yoki Movarounnar tarixi» asarida Muhammad Solih «Layli va Majnun» taxlitida bir masnaviy yaratgan deb aytadi. Biroq boshqa manbalarda bu haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Ehtimol, G. Vamberi «Noz va Niyoz» manzumasining 1524-1525 yillarda vafot etgan muallifi Solih ismli boshqa bir shoir yoki 1566—1567 yillarda vafot etgan Solih Ibn Jalolni («Layli va Majnun» nomli doston muallifi) Muxammad Solih deb o'ylagandir. Har xolda, Muhammad Solihning asosiy adabiy merosi „Shayboniynoma“ bo'lib qolmoqda.

Shuni ham uqtirib o'tish lozimki, Shayboniixon haqida Muhammad Solihning «Shayboniynoma»sidan boshqa yana bir necha asar ham yaratilgan edi. Bu asarlarning ko'pi bevosita Shayboniyning o'z topshirig'i bilan vujudga kelgan edi. Shunday asarlardan biri Mullo Shodiyning 76 bobdan iborat «Fatxonmai xoniy» («Xonning g'alaba kitobi») dostonidir. Unda Shayboniyning tug'ilishidan tortib 1501-yilgacha (Samarqandning Shayboniy tomonidan ikkinchi marta istilo qilinishigacha) bo'lgan voqealar bayon etiladi.

Shayboniy saroyida bir necha yil xizmat qilgan Binoiy ham «Shayboniynoma» va «Futuxoti xoniy» («Xonning g'alabalari») degan ikkita tarixiy asar yozgan. Bu asalar Shayboniyning bolalik chog'laridan tortib 1502-yilgacha bo'lgan sarguzashtlarini hikoya qiladi. Tarixchi Ro'zbexon Shayboniyning 913-914 (1508-1509) yillardagi urush-yurishlarini tasvirlab, «Mexmonnomai Buxoro» asarini yozadi. Bu asarda tarixiy voqealardan tashqari, Shayboniyning diniy marosimlarda, baxslarda ishtirok etishi ham hikoya qilinadi.

Bulardan boshqa, o'zbek tilida noma'lum bir muallif Shayboniy haqida asar yozgan. Unda muallif turkiy xalqlarning qadim zamonlardan boshlab Shayboniy vafotiga qadar bo'lgan tarixi hakida so'zlaydi. Ammo asarning dastlabki qismlarida tarixiy voqealar emas, balki afsona va rivoyatlar hikoya qilinadi.

Yuqoridagi asarlarda, garchi boy faktik material berilsa ham, lekin tarixiy voqealar feodal sinfi manfaatlarini nuqtai nazaridan yoritiladi va sulolalarning toj-taxt kurashlari tendensioz shaklida tasvirlanib, Shayboniixon ideallashtirib yuboriladi.

Muhammad Solih ijodidagi badiiy tasvir vositalari.

Bosh qo'yub ikkalasi bir yerda,
Yuz tuman ko'h-u kamar har yerda
Har birining boshi gardunga yetib,
Har birining qo'li Jayxunga yetib.
Qofning tog'i alar ollida past,
Yo'lida yer deganing bir kafi dast.

Yuqorida berilgan parchalarda mubolag'a va jonlantirish san'atidan keng foydalanilgan.

Tuzib erdi navkari Boburning,
Erib erdi jigari Boburning



Xorliklar bila o'stum bisyor,
Zorliglar bila ko'rдум bisyor.

Tarse

Anafora (takror):

Qoysi oq raxtga urdi o'zni,
O'tkarib hind eliga so'zni.
Qoysi deboyi munaqqash topti,
Qoysi g'oli bila mafrash topti.
Qoysi xurjun bila xarji oldi.
Uzi tushub, oni o'tg'a soldi...

O'xshatish:

Mavjzan bo'ldi tengizdek lashkar,
Tutqudek mavji oning bahru bar.
Barcha zindon aro yotqon kishidek,
Balki o'lg'anu qotqon kishidek.

(Samarkand камали.)

Bor edi so'zi oning nodonlardek,
Qilig'i yoshgina o'g'lonlardek.
(Buxoro hokimi Boki Tarxon тасвири.)

Bor edi shahar aro Shayxul-islom,
So'zlari borcha soqolidek xom.

(Samarkand Shayxul-islomi Abulmakorim тасвири.)

Sirrini xalq aro ochti Vali,
Bir quruk boshin olib qochti Vali.
Qochti boshini olib ul ko'rnamak,
It so'ngakni olib qochqontak.

(Hisor hokimi Xisrav shoxning inisi Valibekning mag'lubiyati haqida.)

Tosh kibi muzlab edi ul daryo,
Yo'q edi hech nam anda aslo.

(Sirdaryo тасвири.)


Sifatlash:

Zafaroniy bo'lubon chehralari,
Quruk o'tdek bo'lubon sabzalari.
Boshida bor edi keshlik qalpok,
Jumrubon yopurub erdi qulok.

Istiora:

Ul sahar xon eli andoqqi hurus,
Chiqtilar tomga xon urgach qo's.





Tanbal ahli yotibon evlar aro,
Mokiyondek edilar navxasaro.
Bir sori yo'lini daryo tutti,
Suv'g'a tushganni balig'lar yutdi.
(Andijonning olinishi тасири.)

Majoz:

Otib urdum birisining qo'lig'a,
Yiborib oni otamning yo'lig'a.
Chun sahar kavkabasi qildi zuhur,
Yozdi anbar varaqiga kofur.
Dema, xon lashkari tutti Sirni,
Yana bir Sir kesib utti Sirni.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Muhammad Solih har tomonlama ideal inson, siyosiy ishlarda deymizmi, yoki jamiyatda tutgan o'rni, ilmiy va adabiy sohalarda ham qilgan ishlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak ham uning har bir misralari-yu she'rlarida haqiqat va hayot nafasi ufurib turganini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Natan Mallayev „O'zbek adabiyoti tarixi". „O'qituvchi" nashriyoti Toshkent-1976.
2. Adabiyot II-sinf darslik. „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2017 Boqijon To'xtaliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova.
3. „O'zbek adabiyoti tarixi", 5tomlik, 1-tom. T., 1978.

